

**O'QUVCHI-YOSHLARNI BAHOLASH TEKNOLOGIYASINING  
DOLZARB MASALALARI**

*Djaksilikova Aygerim Bakitjan qizi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti  
Qozoq tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarni baholash tizimining o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan formativ va summativ baholash haqida fikr-mulohazalar mavjud. Shu bilan birga baholashda testlar, viktorinalar yoki og'zaki savol-javoblar yoki digonostik baholash usullarining yangi zamonaviy pedagogik vositalar bilan qo'llanishi yuzasidan fikr va mulohazalar mavjuddir. Dars tizimini joriy qilish va o'quvchilarni egallagan bilim ko'nikmalari darajasini tekshirish va ularni savodxonlik darajasini yana bir bora oshirishga qaratilgan turli usullar va tavsiyalar berib o'tilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida baholash texnologiyasining yangi shakllari va mulohazalar haqida ham qarashlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** Formativ baholash, summativ baholash, digonostik baholash, viktorinalar, faollii darajasi.

### **KIRISH**

Bugungi kunda ta'lif ishini tashkil etishning dolzarb masalalaridan yana bir shuki o'quvchi yoshlarni baholash texnologiyalardir. O'quvchi yoshlar dars tizimida faol ishtiropi uchun va berilgan vazifalarni bajarganligi uchun dars yakunida o'qituvchi tomonidan baholanadi. Baholashda o'quvchining tartibi, intizomi o'zlashtirish darjasasi va darsga qatnashish yoki faollik darajasiga ko'ra baholanadi. Ayrim tarkibiy qismlar va uyga vazifaning tushinilish, bajarilish darjasasi ham inobatga olinishi, kuzatuv kexnologiyalari bilan hama amalga oshirilishi mumkin. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2021- yil 24- dekabrda oliy ta'lif tizimini tubdan isloq qilish va oliy ta'lif muassasalarini moliyaviy va akademik tashkil etish borasidagi qarorlariga asosan ta'lif jarayonidan ayrim o'zgarishlar va islohotlar yuz bermoqda. Baholash jarayonining turli tarkibiy qismlarga bo'linishi va uning formativ va summativ mexanizmlar asosida baholanishi ham mavjud. "Formativ va summativ baholashning asosiy farqlari.

1. Formativ baholash o'quv jarayonida talab qilinadigan ma'lumotlarni taqdim etadigan, o'qitishni moslashtiradigan turli xil baholash tartib-qoidalarini anglatadi. Summativ baho o'quvchilarning bilimini baholash standarti sifatida belgilangan.
2. Formativ baholash diagnostik xususiyatga ega, Summativ baho esa baholovchi hisoblanadi.
3. Formativ baholash-bu o'r ganish uchun baholash, Summativ baholash- bu

ta'limni baholash.

4. Formativ baholash oylik yoki chorakda doimiy ravishda amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, Summativ baholash faqat kurs tugaganidan so'ng ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshiriladi.

5. Formativ baho o'quvchilarning bilimini oshirish uchun o'tkaziladi. Aksincha Summmativ baho o'quvchilar faoliyatini baholash uchun o'tkaziladi".[1]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Xorij texnologiyalari va xorih mutaxassislarining izlanishlariga ko'ra baholash tizimini yangi usullari va o'quvchilarni har bir texnologik vositalar bilan ishlashni yuzaga keltirish lozim. So'roq va savol javob shakllari, dars paytidagi faollik va iqtidorning yo'naltiruvchilik qobiliyatini shakllantirish, qayta aloqani yo'lga qo'yish o'qituvchi va o'quvchi o`rtasidagi munosabatlar shakllar ya'ni yozma ish shaklida yoki og'zaki shaklda diogonostik baholash usullari bilan ham yuzaga keladi.

### **NATIJALAR**

O'quvchilarning formativ baholashda ularga nisbatan o'quvchining faoliyati bajargan vazifalari xususida batafsil mulohazalar yuritgandan so'nra o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda baholash mexanizmlari mavjud bo'lib, o'quvchining darsga faolligi o'zlashtirilgan bilimlari va darsda qatnashishga qarab baholanadi. Ayrim mamlakatlarda o'quvchining ballik tizimida baholanishi ham mavjud. Misol uchun uning darsga qatnashishi va faollik ko'rsatishi rejalar berishsa uyga vazifalarning bajarilish bajarilmasligi ko'ra ballar bilan baholanadi. u borada Marina Aleksandrovnaning pedagogika sohasidagi "baholashning yangi shakllari" kitobida formativ baholash va summativ baholashning o'ziga xosliklari ochib beriladi. "Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan.[2]

### **MUHOKAMA**

Sinflarda muntazam oliy baho oluvchi doiralar va besh va to'rtlik baholarining farqiy jihatlarida quyi sinf o'quvchilariga nisbatan xos darajalar ham mavjuddir. So'roq shakllari va o'qish darajasida grafik tashkilotchilik ham o'z-o'zini baholash va o'qituvchi tomonidan baholanishiga yordam beradi. Baholashda summativ baholash va dastur samaradorligi o'ziga xoslik tashkil etadi. O'quv jarayonini tekshirish va

hokazolar yuzaga keladi. Baholash prinsiplari ya'ni farmativ baholashning summativ baholash bilan o'zaro diagostik xususiyatlari ham mavjuddir. "O'quvchini keyingi sinfga o'tkazish ijobiy baho olgan taqdirda amalga oshiriladi. Maktab pedagogika kengashi qarori bilan o'quvchilar qoniqarsiz baholar bilan ham sinfdan-sinfga o'tkazilishi mumkin.O'quvchi uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yillik bahodan norozi bo'lsa, unga maktab pedagogika kengashi tomonidan tuziladigan tegishli fan komissiyasiga (ota-onalar yoki ular o'rmini bosuvchi shaxslar ishtirokida, agar ular shuni xohlasalar) imtihon topshirish imkonи beriladi.Qayta imtihon topshirishga barcha ko'chirish sinflarida (bitiruv sinflari bundan mustasno) faqat joriy o'quv yilda o'qitilgan fanlar bo'yicha ruxsat beriladi".[3]

Farmativ baholash va summativ baholashning o'zaro farqli jihatlari, ularning o'qish jarayonidagi o'quvchilarim jalb qila olish va natijalarga asoslangan holatda baholash texnologiyasi yuzasidan qarashlar ham mavjuddir. O'quvchilarni qisqa savol-javoblar, viktorinalar yoki og'zaki savol-javoblar asosida baholash texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanib baholash texnologiyalari o'rtasidagi farqli jihatlari ham inobatga olingan.

#### **FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dilnoza Oxunova. O'quvchilar bilimini baholashga zamonaviy yondashuvlar. Academic Research in Educational Sciences – 2022
2. .Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M.: Znaniye 2016
3. Baxtigul Xolbekova Abdunabiyevna. O'quvchilarni baholashdagi yangi metodlar va eski uslubning farqlari. Ustozlar uchun. 43-son 1-to'plam aprel 2023